



ISLOM IQTISODIYOTIDA INVESTITSIYALAR: ULARNING TASHKILiy VA BOSHQARUV TIZIMI HAMDA AMALDA QO`LLASH TAMOYILLARI

Irgasheva Gulbahor Sodiqovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada islom moliyasida investitsiyaviy instrumentlar mushoraka va mudorabaning nazariy asoslari, tashkiliy va boshqaruv tizimi hamda amalda qo'llash tamoyillari haqida ma'lumotlar berilib, shuningdek ularning bir biridan farqli jihatlari yoritib berilgan. Bundan tashqari, mazkur shartnomalarni amaliyotga joriy qilish O'zbekistonda ichki va tashqi investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlariga doir masalalar keltirilgan.

Kalit so'zlari: islomiy investitsiyalar, mushoraka, mudoraba, me'yoriy-huquqiy baza, ITB, investitsiya loyihalari, islomiy moliyalashtirish mexanizmlari.

ИНВЕСТИЦИИ В ИСЛАМСКУЮ ЭКОНОМИКУ: ИХ ОРГАНИЗАЦИОННО-УПРАВЛЕНЧЕСКАЯ СИСТЕМА И ПРИНЦИПЫ ПРАКТИЧЕСКОГО ПРИМЕНЕНИЯ

Иргашева Гулбахор Садиковна
Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В данной статье представлена информация о теоретических основах инвестиционных инструментов, мушарака и мудараба, организационно-управленческой системе, а также принципах практического применения, а также их отличиях друг от друга. Кроме того, представлены вопросы, связанные с возможностью привлечения отечественных и иностранных инвестиций в Узбекистан путем реализации данных соглашений.

Ключевые слова: исламские инвестиции, мушарака, мудараба, нормативная база, ИТБ, инвестиционные проекты, механизмы исламского финансирования.

INVESTMENTS IN ISLAMIC ECONOMY: THEIR ORGANIZATIONAL AND MANAGEMENT SYSTEM AND PRINCIPLES OF IMPLEMENTATION

Irgasheva Gulbakhor Sadikovna
Tashkent State University of Economics

Abstract. This article provides information about the theoretical basis of investment instruments, musharakah and mudarabah, organizational and management system, as well as the principles of practical application, as well as their differences from each other. In addition, issues related to the possibility of attracting domestic and foreign investments in Uzbekistan by implementing these agreements are presented.

Keywords: islamic investments, musharaka, mudarabah, regulatory framework, ITB, investment projects, Islamic financing mechanisms.

Kirish.

Bugungi globallashuv jarayonida jahon amaliyotidan ko'rish mumkinki, har qanday mamlakat o'z iqtisodiyotini rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarni jalb qiladi, negaki bu jarayonlarsiz mamlakat taraqqiyotiga erisha olmaydi. Ishlab chiqarish jarayonlarini intensiv va yuksak darajada rivojlantirish, mamlakatlardagi mavjud bo'lgan yoki yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan ijtimoiy muammolarni bartaraf etish, zamonaviy texnika-texnologiyalar asosida ishlab chiqariladigan mahsulotlar raqobatbardoshligini har tomonlama oshirish, mamlakatning eksport salohiyatini mustahkamlash, eksport ko'lamini har qachongidan ham yuqori sur'atlarda oshirish, bu eng avvalo mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun jalb qilinadigan investitsiyalar oqimi orqali ta'minlanadi.

Bu borada mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda nafaqat ichki, balki xorijiy investitsiyalarni samarali jalb qilish bugungi kunning dolzarb masalalardan biridir. Bunda, bugungi kunda butun musulmon shu bilan birgalikda musulmon bo'lmagan mamlakatlarda ham keng rivojlanib borayotgan islom iqtisodiyoti tamoyillari asosidagi ichki va tashqi investitsiyalarni jalb qilishga doir qiziqishlar yildan yilga oshib bormoqda.

Jahonda islom moliya tizimi jadal sur'atlarda rivojlanib borayotgan va ishonchli, innovatsion moliyalashtirish mexanizmlarini o'zida jamlangan sohalardan biri hisoblanib, 2022 yil yakunlari bo'yicha ushbu tarmoqning yalpi aktivlari miqdori 4.5 trillion AQSh dollarini tashkil etdi va yiliga o'rtacha 10-15 foizga o'sib bormoqda. Bundan ko'rish mumkinki, islom moliyasining rivojlanishi va keng tarqalishi yildan yilga oshib bormoqda. Mustaqil Shariat olimi Shayx Yusuf Talal DeLorenzoning ta'kidlashicha, "Investitsiya qilish musulmonlar o'z pullari ustida yaxshi boshqaruvchi bo'lishlari mumkin bo'lgan usullardan biridir, buni Islom ta'limoti targ'ib qiladi". Buning isboti esa ilk bor 2000-yilda dunyo bo'ylab 150 milliard dollardan ortiq islom investitsiya bozori mavjud ekanligi ma'lum qilinganligida edi.

Shu bilan bir qatorda, O'zbekistonda ham bu sohani rivojlantirishga doir ma'lum bir kelishuvlar va qonunchilikni ishlab chiqishga doir chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-martdagi "Islom taraqqiyot banki guruhi va Arab muvofiqlashtirish guruhi jamg'armalari bilan sherikchilikni yanada kengaytirish va chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4224-sonli qarori 2-bandida O'zbekiston Respublikasining ITB guruhi AMG bilan uzoq muddatli sherikligining asosiy yo'nalishlari hamda vazifalaridan biri sifatida davlat-xususiy sherikligi mexanizmlarini, jumladan vaqf-jamg'armalarini tashkil etish yo'li bilan qo'llab-quvvatlash dasturlarini birgalikda ishlab chiqish va O'zbekistonda tatbiq qilish belgilangan. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoev Islom taraqqiyot banki Boshqaruvchilar kengashining 46-yig'ilishida ochilish marosimida so'zlagan nutqida "Bankning yillik anjumani Toshkentda o'tkazilishi o'ziga xos ramziy ma'noga ega. Biz buni O'zbekistonning islom dunyosi rivojiga qo'shgan xissasi, shuningdek, mamlakatda so'ngi besh yil davomida olib borilayotgan izchil islohotlarning e'tirofi, deb hisoblaymiz", - deya ta'kidlab o'tgan edi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Islom taraqqiyot banki Prezidenti ushbu uchrashuvlarida ko'p qirrali sherikchilikni kengaytirish istiqbollari alohida e'tibor qaratdi. Suhbat davomida 2022-2025 yillarda amalga oshirilishi rejalashtirilgan yangi hamkorlik dasturini yaqin vaqtlarda qabul qilish va amalga oshirishlik, shuningdek, Islom taraqqiyot bankining O'zbekistonda to'laqonli vakolatxonasini ishga tushirish, moliyalashtirish instrumentlari samaradorligini oshirish muhim ekanligi ta'kidlandi. Tomonlar o'rtasidagi keng ko'lamlilik hamkorlik va strategik sherikchilikni rivojlantirish maqsadida o'zaro muloqotlarni davom ettirish hamda yaqindan ishlashga kelishib olindi. Shunday ekan, musulmon davlatlaridagi faoliyati islomiy moliyalashtirishga asoslangan mavjud banklar, investitsiya fondlari va kompaniyalar mablag'larini O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash maqsadida jalb etish ayni muddaodir. Buning uchun, albatta, milliy bank tizimiga yangicha yondashuv bilan nazar solmoq lozim, ya'ni an'anaviy

moliyalashtirish mexanizmlari bilan bir qatorda sherikchilikka asoslangan moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish masalasi tadqiq etilishi muhim va dolzarb hisoblanadi.

Ushbu tadqiqot ishimizda islom moliyasida investitsiya shartnomalari mushoraka va mudorabaning asosiy mazmun-mohiyati, ularni amaliyotda qo'llash tamoyillari, islomiy investitsiyalarga qo'yiladigan talablar va ikki shartnoma o'rtasidagi farqlar tadqiq etilgan.

Adabiyotlar sharhi

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, islom moliyasi bugungi kunda butun dunyoda juda tez sur'atda rivojlanib borayotgan jahon moliya sanoatining yetakchi qismi sifatida e'tirof etilmoqda. Islom moliyasi eng ilg'or soha sifatida nafaqat musulmon mamlakatlari, balki musulmon bo'lmagan mamlakatlar ham o'z moliya sanoatlarida qo'llamoqdalar.

Bu borada ko'plab xorijiy, MDH mamlakatlari va o'zbek olimlari va tadqiqotchilari bu sohaga doir o'z izlanishlarini olib borishgan va uning natijalarini o'z tadqiqotlarida bayon etishgan. Xususan, xorijlik islom moliyasiga doir tadqiqot ishlarini olib borgan olimlardan biri Shayx Muhammad Taqi Usmoniy (2011) o'zining "Islom moliyasiga kirish" kitobini yozib, ushbu kitobda asosan islom banklari, nobank moliya institutlari tomonidan qo'llaniladigan moliyalashtirishning turli usul va vositalariga doir ma'lumotlar berilib, islom moliyasining qoidalari, tamoyillari va uslublarini bayon etgan. Jumladan, islomiy investitsiya shartnomalari mushoraka va mudorabalarni mohiyati, amaliyotda ishlatilish tuzilmasi va ularga doir barcha masalalar batafsil yoritib berilgan. Bugungi kunga kelib, bu kitob butun dunyo bo'ylab mutaxassislar, ushbu sohani o'rganuvchilar, tadqiqot olib borayotgan izlanuvchilar uchun bir qo'llanma sifatida tarqalib, keng foydalanilmoqda. Bundan tashqari, Muhammad Ayub (2007) ham bu sohaga doir o'z izlanishlarini olib borgan, uning "Islom moliyasini tushunish" nomli tadqiqot ishida islomiy investitsiyalarning mamlakatlar iqtisodiyotini rivojidadagi roli tushintirib berilgan.

Shuningdek, MDH mamlakatlari olimlari orasida ham bu sohaga doir qiziqishlar ancha yuqori bo'lib, o'z tadqiqot ishlarini olib borishgan. Xususan, Baydaulet (2019) o'zining "Islomiy moliya asoslari" nomli kitobini yozib, o'quvchilar uchun bu sohani o'rganishda juda katta hissa qo'shgan. U kitobida yuqori saviyadagi zamonaviy innovatsion tadqiqot usul va uslublaridan foydalangan holda ushbu sohani endi o'rganishni boshlagan o'quvchi uchun juda tushunarli tarzda yozgan. Ushbu kitobda islom moliyasining yuzaga kelish tarixi va sabablari, islom banklari, shuningdek, islomiy moliyalashtirish vositalari mushoraka, mudoraba, murobaha, ijara, istisno, sukuk, takaful va salam haqida to'liq yoritib bergan. Shunisi quvonarliki, bugungi kunda bizning mamlakatimiz O'zbekistonda ham bu sohada tadqiqot ishlari va izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilarning yildan-yilga ko'payotgani tahsinga sazovordir. Ular o'zlarining izlanishlarining natijalarini doimo e'lon qilib borishi bu sohaga qiziqish bildirayotgan yangi o'quvchilar uchun ayni muddaodir. Xususan, Xasanov, (2017) o'zining "Axloqiy (islomiy) moliyalashtirish tizimi-innovatsion moliyalashtirish vositasi sifatida" maqolasida islomiy moliyalashtirishning mamlakatlarning rivojidadagi afzalliklarini yoritib bergan. Bundan tashqari, Tursunov (2021) o'zining tadqiqot ishlarida an'anaviy banklarda islomiy bank xizmatlari, islomiy moliyalashtirish vositalardan foydalanish masalalari ko'rib chiqilgan. Abrorov (2020) "O'zbekistonda sukuk islomiy qimmatli qog'ozini joriy etish istiqbollari" ga doir tadqiqot ishida O'zbekistonda sukukni joriy etishga doir o'zining taklif va tavsiyalarini ishlab chiqqan. Yana boshqa o'zbek olimlaridan Imomnazarov (2023) O'zbekiston iqtisodiyotida islom moliyasini rivojlantirish va uning imkoniyatlaridan mamlakatimiz rivojidadagi o'rni doirasida o'z tadqiqot ishini olib borgan. Bundan tashqari, Zayniddinov (2022) O'zbekistonda investitsiya loyihalarni islomiy moliyalashtirish samaradorligini oshirish borasida o'z tadqiqot ishlarida bu sohani mamlakatimizda rivojlantirishga doir o'zining xulosa va tavsiyalarini ishlab chiqqan. Shuningdek, Saydirasulov (2023) o'zining "Yangi O'zbekiston iqtisodiyotida islom moliya bozorining imkoniyatlaridan foydalanishga oid tadqiqot ishida islom moliya bozorini tadqiq

qilish orqali O'zbekistonda islomiy investitsiyalar oqimi hajmini kengaytirishga doir o'zining xulosa va takliflarini bergan.

Ilmiy tadqiqotimizda foydalanilgan yondashuv va obyekt yuqorida nomlari keltirilgan olimlarning ilmiy ishlaridan farqlanadi.

Tadqiqot metodologiyasi.


Maqolamizni ilmiy jihatdan keng darajada tahlil qilishda sifat yondashuvidan foydalanildi. Shuningdek, mushoraka va mudoraba islomiy moliyalashtirish vositalarini tadqiq qilishda induksiya va deduksiya usullari, grafik tasvirlash kabi tadqiqot usullaridan samarali ravishda foydalanildi. Bundan tashqari, mushoraka va mudoraba moliyalashtirish vositalari o'rtasidagi farqlarni tahlil qilishda qiyosiy tahlil qilishdan ham foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.


Islomiy investitsiyalardan maqsad faqat shaxsiy foydalanish uchun imkon qadar ko'proq boylik to'plash emas, balki sarmoyalar nafaqat investorga, balki butun jamiyat va ummatga foyda keltirishi, sarmoyalarning Qur'on va Sunnat ta'limotlari bilan uyg'un bo'lishi kerakligini ko'rsatadi. Shunday qilib, islom investitsiyasi, Alloh taolo Qur'oni Karim Moida surasida aytganidek, birodarlik va barchaning manfaati uchun bir-birlariga yordam berish tuyg'usini o'z ichiga oladi: "...Yaxshilik va taqvo yo'lida bir-biringizga yordam bering, gunoh va adovatda bir-biringizga yordam bermang...". Bundan ko'rish mumkinki, har qanday tadbirkorlik yoki biznes faoliyati natijasida erishiladigan foyda yoki daromad islomiy qonun-qoidalar, shariatda joiz hisoblangan tamoyillar asosida amalga oshirilishi, halol manbalardan bo'lishi, bularga asoslanib amalga oshirilgan bo'lsagina shaxsiy iste'mol yoki xayriya ishlariga yo'naltirishda islom sarmoyasi shar'iy yo'l-yo'riqlar va tamoyillarga muvofiq bo'lishini taqozo etadi. Shuni inobatga olib, biz maqolamizda islomiy investitsiya shartnomalari mushoraka va mudorabaning nazariy asoslarini yoritibgina qolmasdan, ularning insoniyat shuningdek, jamiyatga qanday foyda keltirishini ham ko'rib chiqamiz.

Mushoraka sherikchilik asosida biznesni tashkil etib, foyda va zararni birgalikda baham ko'ruvchi hamkorlar o'rtasidagi kelishuv shartnomasi hisoblanadi. AAOIFI xalqaro standartlariga ko'ra, mushoraka (sharika, shirkat) sherikchilik shartnomasidir, bu ikki va undan ko'proq tomonlar o'rtasida foyda olish maqsadida mehnat resurslari yoki majburiyatlarni, aktivlarni birlashtirish to'g'risidagi kelishuvni anglatadi. Bunga misol tariqasida tijoratdagi sherikchilikni oladigan bo'lsak, mushoraka shartnomasiga ko'ra, moliya muassasining daromadi tijoratdan keladigan foydaga asoslanib, foyda qanchalik ko'p bo'lsa, moliya muassasi uchun unga keladigan daromad ham shuncha yuqori bo'ladi. Bu esa, hozirgi an'anaviy banklarning tadbirkor va sanoatchilarga foiz asosida beradigan qarzlardan farq qilib, mushorakada ko'riladigan foyda va zarar faqat bir guruh qo'lida to'planib qolmaydi, balki foyda va zarar teng taqsimlanadi. Bu esa tomonlar o'rtasidagi adolatsizlikni oldini oladi. Bundan tashqari, mushorakada ko'rilgan foyda tomonlar kelishuviga ko'ra belgilansa, zarar har doim kiritilgan sarmoyaning nisbatiga qarab taqsimlanadi.

Mushoraka borasida turli olimlar fikr bildirgan. Xususan, Usmani (2023) "Biznes va savdo talqinida ushbu atama qo'shma korxonalar (oddiy sherikchilik)ni anglatadi, bunda barcha sheriklar umumiy ishdagi foyda yoki zararni taqsimlaydilar, ushbu so'zning mazmuni islom fiqhida ishlatiladigan "shirkat" atamasidan kengroqdir. Mushoraka atamasi "shirkat"ning xususiy shakli- "shirkat ul-amvol" bilan cheklangan, unda ikki yoki undan ortiq shaxslar o'z kapitalini qo'shma tijoriy korxonaga investitsiya qiladilar. Ba'zan u "shirkat ul-amal"ni ham o'z ichiga oladi, unda sherikchilik xizmat ko'rsatish sohasida amalga oshiriladi" degan bo'lsa, R.Vohidov esa mushoraka xususida "Kapitalda ikki tomon ishtirok etadigan tadbirkor va moliyaviy ishtirokchining sherikchiligi. Foyda tomonlarning kelishuvi bo'yicha, zararlar esa kapitaldagi ishtirokka mutanosib taqsimlanadi" degan fikrni bildirgan.



1-rasm. Shirkatning turlari



2-rasm. Mushorakaning turlari

Yuqoridagi 1 va 2-rasmda, shirkat va mushorakaning turlari hamda uning sheriklik asosida qanday faoliyatlarni amalga oshirilishi yaqqol ko'rsatilgan. Unga ko'ra, shirkat 2 turga bo'linadi: shirkatul mulk va shirkatul aqd, shuningdek, ularning o'zi ham bir qancha turlarga bo'linishi rasmda keltirilgan. Shirkatul aqd bir necha turlarga bo'linib, bulardan biri shirkat ul-amvol hisoblanib, sheriklarning har biri ma'lum miqdorda sarmoya kiritishadi, har biri biznesni boshqarishda qatnashishi mumkin va zarar ularning kiritgan kapitaliga mutanosib ravishda taqsimlanadi. Shirkat ul-vujuh esa sheriklar o'rtasida ma'lum majburiyat asosida shakllanib, bunda asosan sheriklar foyda olish maqsadida aktivlarni qarzga sotib oladilar va ularning har birining majburiyatlari va foydadagi ulushi kelishib olinadi. Shirkatning 3-turi shirkat ul-amal hisoblanib, sheriklar o'zlaridagi mavjud qobiliyatlari asosida faoliyatlarida vazifalar sheriklar o'rtasida belgilab olinib, xizmat ko'rsatiladi ya'ni ular yuqori malakali mehnatni bajarishga doir xizmatlar ko'rsatadilar.

Yuqoridagi 1-jadvalda mushoraka shartnomasining turi hisoblangan, zamonaviy korporatsiyalarning ko'pchilikka ma'lum bo'lgan shakllari keltirilgan.

3-rasmda qozog'istonlik olim Baydauletning, (2019) "Islomiy moliya asoslari" nomli kitobida keltirilgan mushoraka shartnomasini tashkil etishdagi bosqichlar aks ettirilgan. Mushoraka bitimini tuzishda eng avvalo tomonlar o'rtasida ya'ni bank yoki moliyaviy tashkilot bilan mijoz o'rtasida kelishuv amalga oshiriladi. Keyingi bosqichda hamkorlar o'rtasida (bank va mijoz) kelishilgan shartnoma talablariga ko'ra, ular o'zlarining biznes-rejalarini moliyalashtirishni kelishilgan ulushlarda taqsimlashadi. O'zlarining biznes rejalarini amalga oshirish jarayonida foyda va zarar yuzaga keladi, bu bank va mijoz o'rtasida kelishilgan ulushlarga muvofiq tarzda taqsimlanadi.


1-jadval

Zamonaviy korporatsiyalarning shakllari:

	Mushoraka-sherikchilik shartnoma/ zamonaviy korporatsiya turlari	Ta'rif talqini
1.	Sharika al-musohama	Bu moliyaviy sherikchilik shakllaridan biri hisoblanadi. Barcha hissadorlari aksiyalarning teng ulushlariga ega bo'lgan kompaniya bo'lib, har bir hissadorning kompaniyadagi javobgarligi uning kapitaldagi ulushi bilan chegaralangan bo'ladi. Sharika al-musohama hissadorlik jamiyati hisoblanadi.
2.	Sharika at-tadamun	Bu ham moliyaviy sherikchilik turlaridan biri bo'lib, faqat o'zida xususiy sherikchilik shaklini aks ettiradi. Shuningdek, kompaniya o'z tovar belgisiga ega va ma'suliyatni umumiy o'zida aks ettiradigan sherikchilik kompaniyasi hisoblanadi.
3.	Sharika at-tavsiya al-basita	Bunda ikki yoki undan ortiq sheriklar bo'lib, boshqaruvchi va passiv sheriklardan iborat bo'lib, xususiy sherikchilik shakllarini o'zida aks ettiradi.
4.	Sharika at-tavsiya bil-as'ham	Moliyaviy sherikchilik shakllaridan biri bo'lib, ma'suliyati cheklangan hissadorlik kompaniyasi hisoblanadi. Bunday kompaniyalarning aksiyalari teng sondagi obunadan iborat bo'lib, bu boshqaruvchi va passiv sheriklar ishtirokida amalga oshiriladi.
5.	Sharika al-muhossa	Bu ham xususiy kompaniyalarning ko'rinishini o'zida aks ettirib, bunda sheriklar shartnoma tuzilib, sherikchilik shakllangunga qadar har bir sherikning moliyaviy tomondagi holati shuningdek ularning majburiyatlari bo'yicha o'zlarining shaxsiy mulklari bilan javob berish qobiliyatlarini ko'rib chiqadilar va baholaydilar.
6.	Sharika al-mutanoqis	Sherikchilik shakli bo'lib, mavjud sheriklardan biri o'zining boshqa sherigining sarmoyadagi ulushini o'ziga butkul o'tishiga qadar, sekinlik bilan sotib olishga va'da beradi.


Islom moliyasida islomiy investitsiya instrumentlaridan yana biri “mudoraba” (kapital va mehnat sherikchiligi)dir. Mudorabaga ko'plab olimlar turlicha ta'rif berishgan. Xususan, M. Al-Jarhi va M.Iqbal “Ishonch asosida moliyalashtirishning monandi bo'lib, kapital egasi bo'lgan bank o'z mablag'larini obro', tajriba va imkoniyatga ega tadbirkor (mudorib)ga samarali ishlatish uchun ishonib topshiradi. Bu holatda bank berilgan pullar evaziga garov talab qilish huquqiga ega emas.

Investitsiya qilingan pullardan kelgan daromad bank va tadbirkor o'rtasida shartnoma imzolangan vaqtdagi bitimga muvofiq taqsimlanadi. Zararlar vujudga kelgan hollarda bank uni o'z zimmasiga oladi, mudorib esa bunday holatda o'zining faoliyati va sa'y-harakati uchun mukofot ola olmaydi” deb mudorabaga ta'rif bergan bo'lsa, R.Vohidov esa “Moliyaviy ishtirokchi va tadbirkorning sherikchiligi hisoblanib, bank kapital beradigan tomon sifatida, qarzdor esa-ushbu kapitalni boshqaruvchi tadbirkor sifatida ishtirok etadi. Loyihadan kelgan foyda bank va ishonchli boshqaruvchi bo'lgan tadbirkor o'rtasida kelishuv bo'yicha taqsimlanadi. Yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zarar xatari bank zimmasida bo'ladi” deya fikr bildirgan. Demak, “mudoraba” sherikchilikning maxsus turi bo'lib, unda bir sherik ikkinchi tomon ishonchli boshqaruvchiga aytaylik tijoratga sarmoya kiritish maqsadida pul berib sherikchilik qiladi. Sarmoya kiritish “Rabbul mol” deb ataluvchi birinchi sherik tomonidan amalga oshirilsa, ish yuritish “mudorib” deb nomlanuvchi ikkinchi tomonning majburiyati hisoblanadi.



2-rasm. Mushoraka shartnomasining amalda qo'llanilish tuzilmasi

4-rasm ham Baydaulet, (2019) tomonidan shakllantirilib, mudoraba shartnomasini amalga oshiradigan tomonlarning vazifa va majburiyatlari keltirilgan. Bunda eng avvalo, bank va mijoz o'rtasida sherikchilik bitimini shakllantiradilar va bank moliyalashtirish vazifasini bajaradi. Keyingi bosqichlarda esa mudorib bu yerda asosan loyihalarni tuzuvchi va amalga oshiruvchi tomon sifatida faoliyat yuritadi. Biznes-loyihalarni amalga oshirish jarayonida foyda va zarar yuzuga keladi.



4-rasm. Mudoraba shartnomasining amalda qo'llanilish tuzilmasi

Mudorabada olingan foyda rabbul mol va mudorib o'rtasida kelishilgan ulushlarda taqsimlanadi, ammo zarar rabbul mol zimmasida bo'ladi qachonki ushbu zararni mudorib tomonidan nazorat qilib bo'lmaydigan tashqi ta'sir ostida sodir bo'lganligi aniqlansa. Ya'ni, agarda mudoribni layoqatsizligi, mas'ulyatsizligi va ishga yetarlicha yondashmaganligi natijasida zarar kelib chiqadigan bo'lsa bu zararga mudorib javobgar hisoblanadi.

2-jadval

Tadbirkorlik faoliyatida hamkorlik turlari sifatida mudoraba va mushoraka amaliyotlarining asosiy farqlari.

	Mudoraba	Mushoraka
Kapitalni ta'minlovchi hamkorlik faoliyati	Faqat bir tomon ya'ni rabbul mol tomonidan sarmoya kiritiladi.	Barcha sheriklar tadbirkorlik faoliyati uchun sarmoya kiritadilar.
Investitsiyalarni boshqarish	Mudorabada biznes boshqaruvida faqatgina mudorib mas'ul hisoblanadi.	Bunda tijorat faoliyatini olib borish uchun hamkor barcha sheriklar ish faoliyatida ya'ni biznes yuritish va boshqarishda ishtirok yetishlari mumkin.
Yuzaga kelgan zararni taqsimlash	Mudorabada yuzaga kelgan zarar rabbul molga tushadi, chunki mudorib sarmoya kiritmagan hisoblanadi. Agar mudorib o'z faoliyatini ye'tiborsizlik va ma'suliyatsizlik asosida bajargan bo'lsa, zarar uning zimmasiga yuklatilishi mumkin.	Mushorakada esa zarar ko'rilsa, bu barcha sheriklarning kiritgan sarmoyalariga mos ravishda bo'linadi
Hamkorlikdagi tadbirkorlik davrida qo'shimcha qarz olish	Mudorib tadbirkorlik faoliyati jarayonida sarmoya kirituvchi tomon nomidan qo'shimcha moliyalashtirishni ta'minlay olmaydi. Sarmoya kiritish faqat Rabbul mol tomonidan amalga oshirilib, barcha mahsulot va sarmoya rabbul molga tegishli hisoblanadi.	Mushorakada barcha tomonlar biznesni boshqarish uchun mas'ul bo'lganligi uchun, tijoratda ko'proq sarmoya kiritishda hech qanday cheklovlar yo'q. Barcha sheriklar tomonidan kiritilgan sarmoyalar qo'shib yuboriladi. Shuningdek, zarur bo'lgan kapital ham sheriklar tomonidan qoplanishi mumkin. Agar tomonlar ko'proq kapital qo'shsa, ulush stavkalari qayta ko'rib chiqilishi mumkin.
Hamkorlik davrida sotib olingan tovarlar	Mudorib tomonidan hamkorlikdagi tijorat davrida tadbirkorlik faoliyati uchun sotib olingan tovarlar sarmoya kiritgan tomonga tegishlidir. Mudorib yesa faqat savdo faoliyatini olib borib, tijoratdagi foydadan o'z ulushini davo qilishi mumkin.	Hamkorlikdagi tadbirkorlik faoliyati uchun sheriklar tomonidan kiritilgan sarmoyalar birlashtiriladi va umumiy kapitalga ya'ni mulkka aylanadi, sheriklarning barchasi birgalikda egalik qilishadi. Sarmoya egalari tadbirkorlik faoliyati davrida olingan tovarlarga o'zlari kiritgan kapitalga mutanosib ravishda huquqqa ega bo'ladilar. Shuning uchun, agar olingan tovar qiymatida o'sish bo'lsa, ular ham bu o'sishning ulushini olishlari mumkin.
Sheriklarning majburiyatlari	Mudorabada agar rabbul mol mudoribga rabbul mol nomidan qarz olishga ruxsat bermagan bo'lsa, rabbul molning majburiyati u kiritgan sarmoyadan ortiq bo'lmaydi.	Mushorakada tijorat faoliyatini olib borayotgan sheriklarning majburiyatlari cheklanmagan bo'ladi.
Tarqalishi	Mudoraba amaliyoti kamroq afzal ko'riladi, chunki uning tranzaksiya xarajatlari (ishonch kabi masalalar tufayli) yuqori.	Musharaka amaliyoti ko'plab banklar tomonidan mudorabadan ko'ra ko'proq afzal ko'riladi, chunki u tijorat faoliyatida keng qo'llanilishi va ko'rilishi mumkin bo'lgan sheriklik tuzilishiga ega.

Yuqoridagi 2-jadvalda mushoraka va mudorabaning bir-biridan farqli tomonlari muallif tomonidan yoritib berilgan va bu shartnomalardan foydalanishdagi ma'lum ko'rsatmalar berilganligini ko'rish mumkin.

Xulosa va takliflar.

Olib borgan tadqiqotimiz natijalariga ko'ra xulosa yasaydigan bo'lsak, O'zbekistonda investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning samarali usullarini milliy iqtisodiyot

xususiyatlarini inobatga olgan holda joriy etish, investitsion faoliyatda loyihaviy risklarni imkon darajasida pasaytirish, investitsion risklarni samarali boshqarish, resurslar taqchilligi sharoitida yirik investitsiya loyihalarini samarali moliyalashtirishni tashkil etishda islomiy investitsiyalar asosida moliyalashtirishni tashkil etilishi moliyaviy xizmatlar sifatining oshishi, xorijiy va ichki investitsiyalar oqimining oshishi, xususiy tarmoq vakillari salohiyatining o'sishi, aholi turmush darajasining yaxshilanishi hamda mamlakat iqtisodiyoti rivojiga hissa qo'shishi nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot ishimizda islomiy investitsiya shartnomalari mushoraka va mudorabaning nazariy asoslari, amaliyotda qo'llanilish tamoyillari, va ularga doir masalalar, ular o'rtasidagi farqli jihatlarini tadqiq etdik.

O'zbekistonda ushbu shartnomalarni qo'llash masalasiga kelsak, islom moliyasi bo'yicha qonunchilikni mavjud bo'lmaganli mazkur shartnomalardan foydalanishga imkon bermaydi. Agarda islom bankchiligi yoki an'anaviy banklar qoshida islom darchalarini ochilishiga imkon beradigan qonunchilik qabul qilinsa mazkur shartnomalar va islom moliyasining boshqa shartnomalari asosida sarmoya kiritishga yoki islomiy moliyalashtirishdan foydalanishga tayyor juda katta ichki va tashqi talab borligi olimlar, xalqaro iqtisodiy tashkilotlar va O'zbekiston Respublikasi muassasalari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar, so'rovnoma natijasida aniqlangan. Jumladan, 2020 yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturi va O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi bilan birgalikda O'zbekistonda jismoniy va yuridik shaxslar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma Islom bank-moliyasi mahsulotlariga talab yuqori ekanligi aniqlangan. Xususan, jismoniy shaxslarning 55 foizi, yuridik shaxslarning 38 foizi diniy qarashlari sabab an'anaviy kreditlardan foydalanmasliklarini ko'rsatishgan bo'lishsa, yuridik shaxslarning 61 foizi va jismoniy shaxslarning 75 foizi agarda Islom bank-moliya muassasalari O'zbekistonda faoliyat boshlashsa, o'z moliyaviy amaliyotlarini Islom moliya muassasalarida olib borishlarini aytishgan.

Bundan tashqari, "Islom tamoyillariga asoslangan daromad keltiruvchi omonat yoki sheriklik bitimlariga qancha mablag' yo'naltirgan bo'lardingiz?" degan savolga 26,31 foiz jismoniy shaxslar 1 mln.dan - 5 mln. so'mgacha bo'lgan, 23,69 foizi esa 20 mln.so'mdan ko'p bo'lgan (bo'sh) mablag'larini islom banklariga omonat sifatida qo'yishga tayyor ekanliklarini bildirishgan. Mazkur so'rovnoma natijalaridan anglashimiz mumkinki, Islom bank-moliya tizimining mamlakatimizda joriy qilinishi birinchi navbatda ichki investitsiyalarni rag'batlantiradi, ya'ni bugungi kunda yashirin iqtisodiyotda aylanayotgan mablag'larni rasmiy bank tizimiga jalb qilish imkoniyatini beribgina qolmasdan, Islom moliyasi uchun zarur infratuzilmani shakllantirish Islom moliyasi rivojlangan Arab dunyosi mamlakatlaridan hamda Malaziya, Pokiston, Indoneziya, Turkiya va boshqa bir nechta mamlakatlardan Islomiy moliya yo'nalishi bo'yicha xorijiy investitsiyalarning jadal sur'atlarda kirib kelishiga sabab bo'lar edi. Bundan tashqari, 2023 yilning 21-22 iyun kunlari Toshkent shahrida "Fintex, banklar, riteyl" PLAS- forumi bo'lib o'tdi. Undagi sessiyalardan biri Markaziy Osiyoda islom moliyasi va uning istiqbollari bag'ishlandi.

Forumda so'z olgan Apex bank boshqaruvi raisi Bahrom No'monovning fikricha, islom moliyasining tatbiq etilishi O'zbekistonga har yili 10 milliard dollargacha investitsiya jalb qilishi mumkin. Aholining 95 foizidan ortig'i musulmonlar ekani hisobga olinsa, islomiy moliyalashtirish mahsulotlariga talab yildan-yilga ortib boradi.

Yuqorida keltirilgan dalillar asosida aytishimiz mumkinki, islom moliyasiga O'zbekistonda nafaqat biznes sektori balki aholi tomonidan ham katta talab mavjud bo'lib, so'ngi yillarda hukumat tomonidan ham ushbu sohani rivojlantirishga katta qiziqish bildirilmoqda. Shunday ekan, musulmon davlatlaridagi faoliyati islomiy moliyalashtirishga asoslangan mavjud banklar, investitsiya fondlari va kompaniyalar mablag'larini O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash maqsadida jalb etish ayni muddaodir. Buning uchun, albatta, milliy bank tizimiga yangicha yondashuv bilan nazar solmoq lozim, ya'ni an'anaviy moliyalashtirish mexanizmlari bilan bir qatorda sherikchilikka asoslangan moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish lozim.

Adabiyotlar / Jumepamypa / Reference:

Abrorov S.Z., (2020), *O'zbekistonda sukuk – islomiy qimmatli qog'ozlarni joriy etish istiqbollari*. 08.00.07-Moliya, pul muomilasi va kredit PhD ilmiy darajasi dissertatsiyasi /TDIU T;

Aripov A., (2019) *Islom taraqqiyot banki guruhi va Arab muvofiqlashtirish guruhi jamg'armalari bilan hamkorlikni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining qarori*, 428-son. <https://www.lex.uz/docs/-4351726>.

Baydaulet, E.A., (2019), *Islomiy moliya asoslari [Matn] / E.A. Baydaulet. – Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, – 432 b.*

Bekkin, R.I., (2019), *Islom iqtisodiy modeli va zamon [Matn]– Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2019. – 360 b.*

Imamnazarov J.M, (2023), *Islom moliya tizimi imkoniyatlaridan O'zbekiston iqtisodiyotida foydalanishning nazariy asoslarini takomillashtirish 08.00.01 - Iqtisodiyot nazariyasi. PhD ilmiy darajasi dissertatsiyasi /TDIU T.*

Irgasheva G.S., (2023), *O'zbekistonda islom moliyasini rivojlanishida Malayziya tajribasidan foydalanish yo'nalishlari*, *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil ilmiy elektron jurnal*, 2023-yil, may, 1-son, 137-145-sahifalar, www.e-itt.uz

Muhammad Ayub (2007) *Understanding Islamic Finance*. John Wiley & Sons, Ltd, The Artrium, Southern Gate, Chichester, West Sussex PO19 8 SQ, England, 24.

Saydirasulov L.A., (2023), *Yangi O'zbekiston iqtisodiyotida islom moliya bozorining imkoniyatlari*, *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil ilmiy elektron jurnal*, 2023-yil, sentabr, 5-son, 120-124-sahifalar, www.e-itt.uz

Tursunov A.S, (2021), *O'zbekistan, Tijorat banklarida islomiy bank xizmatlarini rivojlantirish yo'nalishlari*. 08.00.07-Moliya, pul muomilasi va kredit PhD ilmiy darajasi dissertatsiyasi /TDIU T.

Usmani Muhammad Taqi, (2011), *An Introduction to Islamic Finance*. 169 pages;

Xasanov X, (2017), *Ahloqiy (islomiy) moliyalashtirish tizimi – innovasion moliyalashtirish vastiasi sifatida (O'zbekiston va MDH misolida)*. "Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 5.;

Zayniddinov R.X. (2022), *O'zbekistonda islom moliyasining rivojlanishi: to'siqlar va tavsiyalar*. 2/, mart-aprel (№ 00058). "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali. DOI: 10.55439/EIT/vol10_iss2/a4. 27-41 b.

Муфтий Муҳаммад Тақий Усманий (2023), "Ислом молиясига қирш", А.С. Равшанов ва Б.Б. Абдурашулов таржимаси, 47-бет.